




AKADEMIYA  
GOOGLE


RAQAMLI OB'KT  
IDENTIFIKATORI



O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI,  
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BINOSI  
"SOTSIOLOGIYA" KAFEDRASI



# ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8032420>

Chop  
etilgan sana:  
2023-yil 20-may

KONFERENSIYA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLiyAT YURITADI:

1. ZAMONAVIY IJTIMOIY VOQE'LIKNING O'ZIGA XOSLIGI VA ZAMONAVIY JAMIYAT DINAMIKASINI ANIQLASH
2. MINTAQAHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI
3. MINTAQANING IJTIMOIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR
4. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

## XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA | ONLINE ZOOM PLATFORMA MATERIALLAR TO'PLAMI

TOSHKENT  
2023-YIL 25-MAY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH TADQIQOTCHILAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



[HTTPS://NUU.UZ](https://nuu.uz)

OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI  
SOTSILOGIYA KAFEDRASI  
"IJTIMOIY FIKR" RESPUBLIKA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZI

# ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi  
(Toshkent, 25-may 2023-yil)  
**MATERIALLAR TO'PLAMI**



**2-BO'LIM**

TOSHKENT-2023

## KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

### Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich  
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

## KONFERENSIYA TAXRIRY KENGASHI

### Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

### Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

### Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

## DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

MAQOLADA KELITIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ



asosiy ustuvorlik kasb etadi. Milliy an'analarga ko'ra xalqimiz hamisha rahbarlarga tayanadi. Bu o'z navbatida rahbar shaxslar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi kunda ryepublikamizda yagona kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun davlat xizmatini rivojlantirish Agentligi tashkil etildi. Qisqa vaqt ichida agentlik tomonidan davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish, inson resurslarini rivojlantirish borasida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Eng munosib kadrlarni ochiq mustaqil tanlovlar orqali davlat fuqarolik xizmatiga jalb etish ishlari boshlandi. Davlat xizmatchilarining bilimni sinovdan o'tkazish va psixologik portretini shakllantirish maqsadida davlat xizmatchisi testi moduli ishlab chiqildi. Milliy kadrlar zahirasi yaratildi va shakllantirilib borilmoqda. Bugungi kunda kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish, boshqarish va salohiyatidan unumli foydalanishda dunyoning yetakchi kompaniyalari tomonidan amalda qo'llab kelinayotgan metodlarni yosh rahbar kadrlar faoliyatida tadbiiq etishda quyidagi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda:

Yosh istiqbolli boshqaruv kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda rahbar lavozimlarga tavsiya qilishda ilg'or tajribani o'rganish, ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning amaliy yechimini topishda ilmiy tadqiqotlar zaruratini yanada oshiradi;

boshqaruv salohiyatining sotsiomadaniy fenomen sifatida rivojlanish xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish hamda uning institutsional asoslarini tahlil qilish;

boshqaruv salohiyati va madaniyatining o'zaro aloqadorlikdagi tarkibiy elementlari va mazmunini tadqiq etish hamda uning tizim yasovchi elementlarini aniqlash;

ilg'or davlatlarda zamonaviy boshqaruv nufuzini hosil qiluvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish omillari, ularni baholash va o'lchash metodikalari samaradorligini ochib berish;

yosh istiqbolli rahbar kadr ijtimoiy maqomi va nufuzini shakllantiruvchi omillarning sotsiologik jihatlarini asoslash;

O'zbekistonda yosh rahbar kadrlar zahirasini shakllantirishda zamonaviy tendensiyalar, kadrlarni saralash, tanlab olish mezonlarining samaradorligini sotsiologik tadqiqot usuli orqali aniqlashtirish.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: O'qituvchi MU MCHJ, 2021. – B. 40-41.
3. Bekmuradov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 252.
4. Axmedjanov K.B., Xolov A.X. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2020. – B. 3-4.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.8060943>

## ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI

### G'ofurov Otabek

“Sotsiologiya” yo'nalishi 3- bosqich talabasi. O'zbekiston Milliy universiteti,  
Toshkent, O'zbekiston. e-mail: otabekgofurov891@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlanib borayotgan davr va uning ijtimoiy manzarasi, jamiyatning barcha sohalari transformatsiyalashuviga bog'liq jarayonlar haqida so'z boradi.



**Tayanch soʻzlar:** zamonaviy dunyo, inson faoliyati, manzara, tashabbus, taraqqiyot, madaniyat, transformatsiya, intellektual salohiyat, qadriyat, axloq meʼyorlari, strategiya, raqamli iqtisodiyot.

## TRANSFORMATION OF SOCIAL LANDSCAPE AND SOCIAL STRUCTURES OF THE MODERN WORLD

**Gafurov Otabek**

3rd year student of "Sociology" course. National University of Uzbekistan,  
Tashkent, Uzbekistan. e-mail: otabekgofurov891@gmail.com

**Abstract:** This article talks about the developing period and its social landscape, the process related to the transformation of all spheres of society.

**Keywords:** Key words: modern world, human activity, landscape, initiative, development, culture, transformation, intellectual potential, value, moral standards, strategy, digital economy.

Bugungi globallashib borayotgan davrda yashayotgan ekanmiz zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyatning tuzilishi har jabhada oʻzining strategik darajalarini koʻrsatib bormoqda. Shuni ham aytib oʻtishimiz joizki, zamonaviy dunyo yaralib borishida inson faoliyati va insonlarning bir-biriga boʻlgan munosabati beqiyos rol oʻynaydi. Dunyo rivojlanib borgani sari jamiyatda oʻzaro raqobat koʻrinishi avj oladi. Taklif va tashabbuslar ilgarigidek faqat “tepa”dan emas, balki koʻproq quyidan boʻlmoqda. Ularni amalga oshirishda esa quyi, oʻrta va yuqori boʻgʻindagi davlat boshqaruv idoralarining samarali hamkorligi ish bermoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay oʻzgarimoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshimoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, oʻzining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda.

Biz bunday oʻzgarishlarni jamiyat taraqqiyotining eng asosiy sifat koʻrsatkichlari, deb hisoblasak mubolagʻa boʻlmaydi.

Albatta, ijtimoiy himoya tizimidagi ayrim kamchilik va nuqsonlar saqlanib qolmoqda. Biz ularni bosqichma-bosqich bartaraf etishimiz, ushbu tizimni takomillashtirib, yaxshi natija beradigan, jamiyatdagi barcha sogʻlom kuchlarni shu maqsad atrofida birlashtiradigan darajaga yetqazishimiz zarur.

Bir soʻz bilan aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bizning davrimizda real hayotdan butunlay uzilib qolish mumkin emas. Shunga qaramasdan, xalq bilan turli koʻrinishdagi, deylik, bu rejadagi tadbir boʻladimi yoki mahalla, tuman, qaysidir muassasaga kutilmagan holatda kirib borish orqali boʻladimi, umuman, bevosita muloqot hamisha kerak, deb hisoblaymiz.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi har xil turdagi ijtimoiy birliklar va ular oʻrtasidagi munosabatlar majmuidir.

Katta, oʻrta va kichik guruhlar oʻz ichki qonunlari boʻyicha vujudga keladi va rivojlanadi (baʼzan esa parchalanib ketadi va faoliyatini toʻxtatadi), biroq bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan holda jamiyat hayotining u yoki bu jihatlariga taʼsir koʻrsatadi. Ikkinchi tomondan, jamiyat ushbu guruhlarining barchasidan hayot va faoliyatning hamma uchun majburiy boʻlgan qonuniylik, insoniylik, vatanparvarlik kabi meʼyorlariga amal qilishni talab qiladi. Jamiyat hayotidagi asosiy masala – ularning maʼnaviy madaniyatini rivojlantirish va maʼnaviy qadriyatlarini oʻzgartirishdir.

Jamiyat tuzilmalarida, jamiyatning barcha strukturalarida avvalambor madaniyat, davlatlarning xalqaro munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatni ijtimoiy-gumanitar bilimlarda inson hayotiy hodisasi sifatida oʻrganish eng muhim jihatlaridan biri madaniy reproduksiyadir, bu cheklangan miqdordagi qadriyatlar, shu jumladan qadriyatlar oʻtmishidan kelajakka oʻtish, rivojlanish jarayoni, muhim oʻzgarishdir. Bizning nuqtai nazardan birinchi navbatda, madaniyatni qadriyatlar va axloq meʼyorlarni takomillashtirish jarayoni sifatida oʻrganilishi kerak.



Jamiyat tuzilmalarida madaniyat nuqtai-nazaridan inson ongining aqliy transformatsiyasiga yordam beradigan va ijtimoiy-madaniy sohada yoshlarni moslashtirish jarayoniga hissa qo'shadigan omillardan biri – bu biopsixosotsial o'zaro hamkorlikda ishlashdir.

Biz zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasida, ya'ni inson faoliyatining rivojlanish jarayonida raqamli transformatsiyaga alohida to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli transformatsiya – bu zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlar bilan samarali hamkorlik qilish uchun xodimlarning qanday ishlashini qayta ko'rib chiqishdir. Hozirgi kunda raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyotga o'tish bosqichida biz natijadorlikka e'tibor qaratishimiz lozim.

Raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi: 1) inklyuziv, gender jihatdan muvozanatli raqamlashtirishni targ'ib qilish uchun asosiy davlat institutlarining imkoniyatlarini kengaytirish; 2) raqamli innovatsiyalarning afzalliklarini ko'rsatish uchun davlat va nodavlat sektorlarida (sog'liqni saqlash, tilshunoslik, diplomatiya) raqamli yechimlarni joriy etish hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyadan kutilayotgan natijalar esa:

1) hukumatga raqamli rivojlanish milliy dasturiga inklyuzivlik va tenglik tamoyillarini integratsiya qilish bo'yicha maslahatlar berish orqali O'zbekistonda inklyuziv raqamli transformatsiyani rag'batlantirish;

2) hukumatning raqamli ma'lumotlar va sun'iy intellekt bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish;

3) axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi, "Elektron hukumat" loyihalarini boshqarish markazi, IT Park, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda inklyuziv raqamli va ma'lumotlarni boshqarish, raqamli ko'nikmalar, raqamli innovatsiyalar (raqamli salomatlik, sun'iy intellekt) ga e'tibor qaratgan holda O'zbekistonda raqamli transformatsiyani ilgari surish bo'yicha uzoq muddatli va keng ko'lamli tashabbusni ishlab chiqish.

Davlat xizmatlarini barchaga tezkor, samarali va adolatli ko'rsatish uchun elektron hukumatni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, jamoatchilik ishonchi va shaffofligini mustahkamlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ishtirok etish va hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari doimo rivojlanib, jamiyat, madaniyat va iqtisodiyotni tubdan o'zgartirmoqda.

Dunyo raqamli ekotizimda texnologiyaning jadal rivojlanishiga guvoh bo'lmoqda, bunga ijtimoiy tarmoqlar, blokcheyn, sun'iy intellekt, biznes jarayonlari autsorsingi (BPO) va bilim jarayonlari autsorsingi (KPO) misol bo'la oladi. Raqamli rivojlanishning O'zbekiston iqtisodiy o'sishi uchun muhim ahamiyatini e'tirof etgan holda, hukumat raqamli transformatsiyani o'zining birinchi strategik kun tartibiga qo'yarmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilish va 2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida raqamlashtirishga e'tibor qaratish shular jumlasidandir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston hukumati raqamli ko'nikmalarni mustahkamlash hamda O'zbekistonda raqamli ish o'rinlarini yaratish, shu jumladan, yoshlarning salohiyatini oshirish uchun IT va biznes jarayonlari autsorsingi (BPO) hamda bilim jarayonlari autsorsingi (KPO) xizmatlarini kengaytirish bo'yicha o'zining izchil ishlarini olib bormoqda.

O'zbekiston hukumati IT-autsorsing salohiyatini yorqin namoyon etgan holda, aholi, ayniqsa, yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish uchun barcha viloyat va tumanlarda BPOga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarini tashkil etib, ushbu imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Ayni paytda mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotida o'zgarishlar yuz bermoqda. Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlardan axborot orqali ommaviy madaniyatning kirib kelishi, insonning axloqiy barqarorligi, milliy qadriyatlarni saqlab qolish qobiliyati kamaytirishida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun yoshlarning madaniy, ma'naviy va jismoniy salomatligini shakllantirish muammolari alohida o'rin tutadi; mustaqil fikrlaydigan, faol ishlaydigan, intellektual salohiyatga ega bo'lgan va axloqiy tamoyillarga ega bo'lgan «yangi» turdagi fuqarolarni tarbiyalashga katta etibor qaratish lozim. Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalarini transformatsion jarayonida jamiyatning barcha strukturalarida, jamiyatning barcha sohalarida ko'plab o'zgarishlar



yuz beradi, bu esa inson aqliy faoliyatiga bog'liq jihat hisoblanadi. Hozirgi davrda raqamli transformatsiya sari ildam qadam tashlab borayotgan ekanmiz bu har jihatdan jamiyatning ijtimoiy manzarasiga o'zgartirishlar kiritadi. Bugun biz jamiyat hayotining barcha sohalarini sezilarli darajada taraqqiy etayotganining guvohi bo'lib turibmiz. An'anaviy ishlab chiqarish modellarini siqib chiqarilishi, xizmat ko'rsatish sohasiga nisbatan jamoatchilik ta'sirining kuchayib borishi jamiyatdagi taraqqiyot ko'rsatkichidir. Albatta yuqorida aytilgan natijalarga erishishda axborot texnologiyalarning o'rni katta.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlar hisoblanadi, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish. Boshqacha aytganda, bu barcha tashkilotlarning ishiga axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etish, ularni avtomatlashtirish, sohalarni raqamli transformatsiya qilishdir. Barcha sohalar singari fuqarolik jamiyati sohasini ham raqamli transformatsiya qilishga katta extiyoj bor, sababi mamlakatni bir maromda rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va roli juda ham muxim, hozirgi davrda qolgan sohalar jaddalik bilan rivojlanyatgan bir paytda fuqarolik jamiyatini ulardan ortda qolishi mamlakat ekotizimida katta dizbalans tug'dirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalarining o'zgarishi har qanday jamiyat hayotini tubdan isloh qilish zaruratini asoslaydi.

#### Adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiyatning-tarixiy-shakllari-mohiyati-va-xususiyatlari>
2. <https://unions.uz/ru/projects/view/raqamli-transformatsiya-sari-qadam>.

### TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOYIY FAOLLIK KO'NIKIMLARINI SHAKLLANTIRISH – MUHIM MASALA

**G'oyibov Elyor**

Tayanch doktorant

Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonning turli xil sohalarida yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishida ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar ta'lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ekanligi asoslandi.

**Kalit so'zlari:** Huquq, nodavlat notijorat tashkilotlar, qonuniy manfaat, siyosat, jamiyat, ustuvor yo'nalishlar.

### FORMATION OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS IS AN IMPORTANT ISSUE

**Goyibov Elyor**

PhD student

Institute for the Study of Youth Problems and Training  
of Prospective Personnel, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract:** The article states that ensuring the rights and legitimate interests of young people in various areas of Uzbekistan, creating favorable opportunities for the full realization of their potential, expanding their participation in the life of society and the state, socio-economic reforms, increasing the social activity of young people in educational institutions is a priority of state policy.

# MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## I-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

<b>MEHRNING IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI POZITIV TRANSFORMATSIYALASH IMKONIYATLARI.....</b>	<b>6</b>
Karimov Bobir	
<b>HARBIY SOTSILOGIYA: SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>9</b>
Xaydarov Abror, Mirjavxarova Farida	
<b>SHAHAR EKOTIZIMINI BOSHQARISHDA KOPENGAGEN TAJRIBASI.....</b>	<b>13</b>
Kalonov Komil, Xaydarova Xilola	
<b>КОМАНДООБРАЗОВАНИЕ КАК ПРОЦЕСС В КОЛЛЕКТИВЕ ОРГАНИЗАЦИИ.....</b>	<b>16</b>
Сабирова Умида, Хусанбаева Диёра	
<b>YOSHLAR IJTIMOIIY-SIYOSIIY FAOLLIGINI OSHIRISH – USTUVOR VAZIFA.....</b>	<b>18</b>
Jiyanmuratova Gulnoz, Nurqulov Bunyod	
<b>YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA OILA HAMKORLIGI.....</b>	<b>22</b>
Axmedova Feruza	
<b>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY HIMOYA SOHASINING INSTITUTSIONAL O'ZGARISHI.....</b>	<b>25</b>
Xushvaqova Nargiza	
<b>RAQAMLI JAMIYATDA INTERNET KOMMUNIKATSIYALARINING JAMOATCHILIK FIKRIGA TA'SIRI.....</b>	<b>28</b>
Burxanov Xusniddin	
<b>ZAMONAVIIY IJTIMOIIY VOQELIKNI AKS ETTIRISHDA AHOLINI RO'YXATGA OOLISH VA UNING SAVOLNOMA SHAKLLARINING O'RNI.....</b>	<b>32</b>
Yeshniyazov Djamshid	
<b>O'ZBEKISTONDA YAQIN TARIXDA MIGRATSIYA JARAYONLARI KECHISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>35</b>
Axmedova Dildora	
<b>СОЦИАЛЬНОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ В ОБРЕТЕНИИ ВЫСОКОГО СТАТУСА В ОБЩЕСТВЕ.....</b>	<b>37</b>
Аликариев Нуриддин, Халикова Сахобат	
<b>JAMIYATDAGI IJTIMOIIY STRATALARNING TARIXIIY TALQINI.....</b>	<b>40</b>
Bekmurodov Hasan	
<b>MIGRATSIYA OQIMIGA TORTUVCHI VA ITARUVCHI FAKTORLARNING TA'SIRI.....</b>	<b>42</b>
Ahmedova Shahnozaxon	
<b>YOSH RAHBARLARDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....</b>	<b>44</b>
Hakimova Anora	
<b>ZAMONAVIIY DUNYONING IJTIMOIIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI.....</b>	<b>46</b>
G'ofurov Otabek	
<b>TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – MUHIM MASALA.....</b>	<b>49</b>
G'oyibov Elyor	
<b>СОЦИАЛЬНАЯ ИЕРАРХИЯ И СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ: КАК СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ОПРЕДЕЛЯЕТ ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....</b>	<b>52</b>
Турсунов Диёр	

## II-SHO'BA. MINTAQA AHOLISI QADRIYATLARINING DINAMIKASI

<b>KEKSAYISH FENOMENI: QADRIYATLARDAGI O'ZGARISHLAR.....</b>	<b>56</b>
Eryigitova Lobar	
<b>GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIIYLASHUVI VA DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA DINIIY OMILNING ROLI.....</b>	<b>60</b>
Xaydarov Abror, Sotvoldiev Asqarali Shuhrat o'g'li	



<b>VYETNAM QADRIYATLARINING O'ZGARISHI VA XOTIN-QIZLARINING IJTIMOYIY HOLATI.....</b>	<b>62</b>
Nurullayeva U.N.	
<b>YANGI O'ZBEKISTON – IJTIMOYIY DAVLAT.....</b>	<b>66</b>
Ibragimov Jahongir, Ablakulova Sitora	
<b>JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR MUHOFAZASI VA ULARGA BO'LGAN EHTIROM.....</b>	<b>70</b>
Mirsagatova Dinara	
<b>ИНФОРМАЦИОННЫЙ ДОСУГ СТУДЕНТОВ.....</b>	<b>75</b>
Решетников Иван, Иноятов Саидакбархон	
<b>NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISH TIZIMINI SHAKLLANISHINING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI (G'ARBIY YEVIROPA VA AQSH MISOLIDA).....</b>	<b>78</b>
Choriyeva Dilafruz	
<b>MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR...82</b>	<b>82</b>
Ernazarov B.O., Sultonova O.A.	
<b>«HAMKORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....</b>	<b>85</b>
Jaysanov Abduvahob	
<b>SUBMADANIYATLAR VA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....</b>	<b>88</b>
Rashidova Shaxnoza	
<b>MILLATNING ETNIK O'ZLIKNI ANGLASH JARAYONI.....</b>	<b>91</b>
Кадирова Якитжан	
<b>QADIMGI YUNON IJTIMOYIY-MADANIY TAFAKKURI AL-FOROBIY MA'NAVYIY-AXLOQIY TA'LIMOTI MANBAI SIFATIDA.....</b>	<b>94</b>
Yusubov Jaloliddin	
<b>O'RTA OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVIGA DOIR SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI.....</b>	<b>97</b>
Abdullayev Akmal	

### **III-SHO'BA. MINTAQANING IJTIMOYIY-IQTISODIY MAYDONI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR**

<b>KEKSA AYOLLARNING SALOMATLIGI VA O'Z SOG'LIG'INI QADRLASH DARAJASI.....</b>	<b>100</b>
Xodjayev Sobir	
<b>HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINING AFFILIATIV IMKONIYATLARI.....</b>	<b>104</b>
Shokirov Sh.	
<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR.....</b>	<b>108</b>
Saparov Kuatbay	
<b>YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR O'RTASIDA RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL JIHLTLARI.....</b>	<b>110</b>
Hamzayev Bekzod	
<b>РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ КОРИДОРОВ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....</b>	<b>113</b>
Катгакулова Наргиза	
<b>YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR IJTIMOYIY KAPITALINI YUKSALTIRISH.....</b>	<b>116</b>
Astanov Axunjon	
<b>DAVLAT BOSHQARUVIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOYIY MEKANIZMLARI.....</b>	<b>118</b>
A'zamova Kumush	
<b>IJTIMOYIY KAPITALINI YOSHLAR TURMUSH SIFATIGA TA'SIRI.....</b>	<b>120</b>
Bozorova O'lmasxon	
<b>МОТИВАЦИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЕ ПЕРСОНАЛА В ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ....</b>	<b>123</b>
Аликареева Альохон, Убайдуллаева Камилла	
<b>BANDLIK VA MEHNAT FAOLIYATINI TADQIQ ETISH BORASIDAGI NAZARIYALARNING TARIXIY ASOSLARI.....</b>	<b>125</b>
Fayzillayeva Visola	

<b>OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>	<b>129</b>
Teshayev Doniyor	
<b>СУИЦИДАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ.....</b>	<b>133</b>
Султанова Феруза	
<b>ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA IJODKOR YOSHLAR SOTSIAL QIYOFASINING O'ZIGA XOS SHAKLLARI.....</b>	<b>136</b>
Dulanboeva Oygul	
<b>IJTIMOIIY TARMOQLARDA YOSHLAR AXBOROT PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGIGA TAHDIDLAR.....</b>	<b>139</b>
Erkinov Javohir	

#### **IV-SHO'BA. ZAMONAVIY DUNYO IJTIMOIIY MANZARASINING TRANSFORMATSIYALASHUVI**

<b>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI MUTAXASSISI BILAN O'QUV MARKAZLARI FAOLIYATI BO'YICHA SUHBAT VA UNING NATIJALARI XUSUSIDA.....</b>	<b>142</b>
Kalanov Komil, Asamova Umida	
<b>THE TRANSFORMATION OF BRITISH FOREIGN POLICY AFTER LEAVING THE EUROPEAN UNION.....</b>	<b>145</b>
Rasulova Gavhar	
<b>ZAMONAVIY DUNYODA RESPUBLIKANING AGRAR SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOT NATIJALARINING STATISTIK TAHLILI.....</b>	<b>148</b>
Berdiqulov Qobil	
<b>DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHISI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA YUMSHOQ KO'NIKMALARNING AHAMIYATI.....</b>	<b>151</b>
Mannanova Nilufar	
<b>IJTIMOIIY BOSHQARUVDA IDENTIKLIK VA BOSHQARUV MODELLARI.....</b>	<b>153</b>
Musurmanov N.A.	
<b>YANGI O'ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMINI TASHKIL ETILISHINING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....</b>	<b>157</b>
Kaxarova Nilufar	
<b>IBN SINO ILMIY MEROSI – IJTIMOIIY TARAQQIYOT UCHUN MUHIM MANBA SIFATIDA.....</b>	<b>159</b>
Adilova Rayxon	
<b>FAROSAT SO'ZINING SHARQ MANBALARIDAGI LUG'AVIY TALQINI.....</b>	<b>161</b>
Raximbayeva Oftobxon	
<b>ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ДЕЛИКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....</b>	<b>163</b>
Талипов Сухроб	
<b>JAMOAVIY ONGGA TA'SIR MEKANIZMLARI TASNIFI.....</b>	<b>166</b>
Saidova Maftunaxon	
<b>IJTIMOIIY ISHCHI KASBI.....</b>	<b>169</b>
Ibragimov Jahongir, Eshnazarova Madinaoy	
<b>ВИЗУАЛЛИК ЛИНГВИСТИК КОДГА МУҚОБИЛ ТИЗИМ СИФАТИДА.....</b>	<b>171</b>
Нажмиддинова Гулноза	
<b>TALABALAR SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY ISHCHILARNING ROLI.....</b>	<b>173</b>
Ibragimov Jahongir, Abduxoliqova Husniya	
<b>O'ZBEK DAVLATCHILIGIDA IJTIMOIIY ISH VA IJTIMOIIY SIYOSAT AN'ANALARI.....</b>	<b>176</b>
Ibragimov Jahongir, Nomozova Shoxsanam	
<b>OMMAVIY NOROZILIK HARAKATLARINING KELIB CHIQISHIDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI (XORIJ DAVLATLARI MISOLIDA).....</b>	<b>179</b>
Xasanov Boburjon	
<b>INTERNET-GLOBAL AXBOROT TARMOG'INING YOSHLAR HAYOTIGA KO'RSATGAN TA'SIRI.....</b>	<b>182</b>
Hamrayeva Vasila	

<b>«НАМКORLIK» TUSHUNCHASI VA UNING SIYOSIY TAVSIFI.....</b>	<b>184</b>
Jaysanov Abduvahob	
<b>AXBOROT MAYDONI YOSHLARNI IJTIMOIYLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....</b>	<b>187</b>
Ahmedova Mohinur	
<b>СПЕЦИФИКА ВЛИЯНИЯ ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-СИРОТ.....</b>	<b>190</b>
Туракулова Азиза	
<b>ЗАМОНАВИЙ ТАРАҚҚИЁТДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ИДЕНТИФИКАЦИЯСИ.....</b>	<b>192</b>
Абдирашид Мирзахмедов, Ашурали Азимов	
<b>ТАЛАБА-ЁШЛАРНИ ИЛМЙ ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.....</b>	<b>197</b>
Нодира Махмудовна Мухаммадиева	

«Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallar to'plami (Toshkent sh., 25-may 2023.) / mas'ul muh. A.J. Kholbekov - Toshkent: O'zMU, 2023. – 204 b.

## KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

### Mas'ul muharrir:

Kholbekov Abdugani Jumanazarovich  
sotsiologiya fanlari doktori, professor (Toshkent, O'zbekiston)

## KONFERENSIYA TAXRIRIY KENGASHI

### Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutaevna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Sabirova Umida Farxadovna

sotsiologiya fanlari doktori, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Alikariyeva A'loxon Nuriddinovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Xusanova Xayriniso Tayirovna

sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Axmedova Feruza Medetovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Kalanova Sabohat Muradovna

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

### Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b. dotsenti (Namangan, O'zbekiston)

### Xaydarova Xilola Xislatovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

### Ahmedova Mohinur Nu'monovna

O'zMU doktoranti (Toshkent, O'zbekiston)

## DIZAYNER

@tadqiqotdesign (Namangan, O'zbekiston)